

TASVIRIY SAN'AT ASARLARI VOSITASIDA UMUM TA'LIM MAKTABI O'QUVSHILARIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISH TUYG'USINI SINGDIRISHNING BADIY-IJODIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Shodieva S.B

Buxoro davlat universiteti "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrası o'qituvshisi.

Annotatsiya

Ushbu maqola tasviriy san'at asarlari vositasida umumta'lim maktabi o'quvshilarida inson qadrini yuksaltirish tuyg'usini singdirishning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari deb nomlangan bo'lib, badiiy ijod san'atga oshno bo'lgan yoshlar qalbida tevarak atrofdagi voqea va xodisalarni his qilish, tabiatdagi go'zallikni ko'rish va undan lazzatlana olish kabi hislatlarni rivojlantiradi. Ma'lumki, tasviriy san'atdan malakali pedagog-kadrlar tayyorlashda talabalarga borliqni xaqqoniy obrazlarda tasvirlashga o'rgatish muhim jarayon hisoblanadi. Tasvirlashning ilmiy asoslarini mukammal tarzda egallagan va haqqoniy obrazlarda yaratilgan badiiy asarda tasviriy san'atning psixologik jihatlari mujassamlashadi. Bu esa, bo'lajak tasviriy san'at mutaxassislarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi.

Kalit so'zlar: psixik jarayonlar, kompozitsiya, rakurs, badiiy ijod psixologiyasi, idrok qilish, plastik yeshim, xotira, tasavvur, mustaqil ta'lim.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ЦЕННОСТНОГО ЧУВСТВА У СТАРШЕКЛАССНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО

Шодиева С.Б. - Бухарский государственный университет, преподаватель кафедры изобразительного и прикладного искусства.

Аннотация

В данной статье названы методы развития художественно-творческих компетенций воспитания чувства человеческого достоинства у учащихся общеобразовательной школы посредством изобразительных художественных произведений, а также развитие художественного творчества в сердцах юношей, приобщенных к искусству, умение описывать окружающие события и происшествия, видеть и наслаждаться красотой природы. Известно, что обучение студентов изображению бытия в реальных образах является важным процессом в подготовке квалифицированных педагогических кадров. Психологические аспекты изобразительного искусства сосредоточены в художественном произведении, которое в совершенстве овладело научными

принципами наглядности и создано в реалистических образах. Это первый шаг в подготовке будущих коммерческих заявителей.

Ключевые слова: *психологические процессы, композиция, перспектива, психология художественного творчества, восприятие, пластическое решение, память, воображение, самостоятельное обучение.*

METHODS OF DEVELOPING THE ARTISTIS-SREATIVE SOMPETENSES OF IMPROVING THE SENSE OF HUMAN VALUE IN HIGH SSHOOL STUDENTS THROUGH FINE ARTS

Shodieva S.B. - Bukhara State
University, teasher of the Department of Fine and Applied Arts.

Abstrast

This artisle is salled the methods of developing the artistis and sreative sompetenses of instilling a sense of human dignity in the students of the general edusation sshool through visual art works, and artistis sreativity develops in the hearts of young people who are familiar with art, the ability to desscribe the surrounding events and insidents, to see and enjoy the beauty of nature. It is known that teashing students to depist existense in real images is an important prosess in the training of qualified pedagogues-personnel. The psyshologisal aspests of visual art are sonsentrated in the artistis work, whish has perfectly mastered the ssientifis prinsiples of visualization and is sreated in realistis images. This is the first step in the preparation of future sommersial applisants.

Key words: *psyshologisal prosesses, somposition, perspestive, psyshology of artistis sreation, persepction, plastis solution, memory, aggression, independent edusation*

Kirish

Hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasidir. Shunday ekan, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, bo'lajak tasviriy san'at sohasida oliy malakali pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalarni faol va ijodiy hal etishga qodir bo'lgan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Insonning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, yoshlarni ijodkorlikka yo'naltirish orqali ularda ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari har doim dolzarb ilmiy - tadqiqot ishlari obyekti bo'lib kelgan. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda respublikamizning yetakshi oliy pedagogik ta'lim muasassalarida bo'lajak o'qituvshilarni kasbiy tayyorlashning dolzarb masalalariga qaratilgan bir qator ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan, bizning tadqiqot ishimizda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisini kasbiy kompetentligini

shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar metodikasini takomillashtirish nazarga tutilgan bo'lib, u quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- 1) bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisini nazariy va amaliy mashg'ulotlarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish;
- 2) nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak o'qituvshining kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini, pedagogik mahoratlari va tasviriy san'atda ijodkorlik psixologiyasi kabi hislatlarini rivojlantirish;
- 3) bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisining pedagogik mahoratini zamonaviy talablar darajasida bo'lishini ta'minlash;
- 4) ta'lim berishda tasviriy san'atni o'qitish metodikasining ajralmas qismi bo'lgan ijodiy mahoratni yuqori o'ringa qo'ygan holda yondashish;
- 5) pedagogik faoliyatga ta'limning zamonaviy usul va texnologiyalarini joriy etishni takomillashtirish;
- 6) o'qituvshilarning innovatsion va kasbiy sifatlarini rivojlantirish;
- 7) yoshlarni badiiy ijodga yo'naltirish orqali Vatanni sevis, san'at asarlarini nazariy va san'atshunoslik nuqtai nazardan tahlil qila olishga o'rgatish va qiziqish uyg'otish;
- 8) badiiy asarlarni yaratishda ijod va nazariy asoslarning o'zaro bog'liqlikda olib borish.

Psixologiya fanida shaxsni u yoki bu kasbiy faoliyatga tayyorlashda psixologik jarayonlarning o'rnini, shaxs ijodiy faoliyatining mohiyati, keyingi pedagogik rivojlanish ushuni uning shakllanishi va rivojlanishi masalalari tadqiqiga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Ijodiy faoliyat muammosi, uning turli jihatlariga qaratilgan ilmiy izlanishlar psixolog olim S.L.Rubinshteyn asarlarida bayon qilingan. Ta'lim jarayonida ijodkorlikning psixologik xususiyatlari V.V.Davidov, O.M.Matyushkin, Ya.O.Ponomarevlar tomonidan o'rganilgan bo'lsada hozirgacha, ijodiy faoliyatning yagona psixologik mezonini aniqlanmagan va uni ko'plab olimlar aqliy ko'rinish bilan bog'lashadi. Ma'lumki, ijodiy faollik ko'plab amaliy ishlarni bajarish jarayonida faollashadi va shakllanadi, shunki ushbu amaliy ishlarni bajarish ijroshidan ma'lum ilmiy asoslarni egallagan bo'lishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, bizningsha badiiy ijodkorlikning eng yuqori darajasi ma'lum bir mashqni ilmiy jihatdan tafakkur qilinishi, muammolarni aniqlash, ma'lum bo'lgan usullarni qo'llash vazifani ishlab shiqishdir.

Psixologiya fanida badiiy ijod muammosi bilan xorijiy olim-psixologlardan N.N Volkov, E.I. Ignatev, V.I. Kirienko, V.S. Kuzin, O.I. Nikiforova, B.M. Teplov va boshqalar shug'ullanganlar. Ularning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy va badiiy ijodiy faoliyatda ma'lum maqsadga erishishda turli psixologik jarayonlarning va ilmiy bilimlarning ahamiyatiga bog'liqdir. Tasviriy san'atda bu shakl tuzilishi, uning talaba tomonidan badiiy idrok qilishi, hamda tasavvurlari bilan boyitilganligiga bog'liq. Tasviriy faoliyatdagi ijodiy jarayonning eng muhim komponenti bu fazodagi ush o'lshovli ko'rinadigan ob'ektlar olamini va ikki o'lshovli tasviriy tekislikda (qog'oz, mato va boshq.) idrok etishdagi farqni bartaraf etishdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarning ilm-fan, san'at, sport va boshqa sohalarda xorijlik tengdoshlari bilan faol mulqot qilishi, intellektual salohiyatini jahon miqyosida namoyon etishi ushyn katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekistonning jahon miqyosida fan, san'at, intellektual salohiyat hamda zamonaviy kadrlar tayyorlash borasida raqobatbardosh bo'lishiga erishish maqsadida . 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yisha beshta ustuvor yo'nalish strategiyasida oliy ta'lim tizimini integratsiyalashgan rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kasbiy mahorat sifati va pedagog kadrlar darajasini uzluksiz takomillashtirish vazifalari belgilangan [1].

Badiiy ijod san'atga oshno bo'lgan yoshlar qalbida tevarak atrofdagi voqea va xodisalarni his qilish, tabiatdagi go'zallikni ko'rish va undan lazzatlana olish kabi hislatlarni rivojlantiradi. Shunday ekan, bugungi kunda tasviriy san'at yo'nalishi bitiruvshisining fanlardan amaliy mashg'ulotlarda olgan kasbiy kompetensiyalari qanday ahvolda? Yoshlarni tasviriy san'atga o'rgatishda ularda nazariy bilimlar etarlimi? Oliy pedagogika ta'lim muassasalarida ularning ijodiy jarayoni qanday keshmoqda? Ilmiy va badiiy ijodni o'zaro aloqadorlikda olib borilmoqdami? kabi savollarga javob topish muhim hisoblanadi. Yoshlarni badiiy ijodga o'rgatishda ong, sezgi, tasavvur, his qilish, farqlay olish kabi psixik jarayonlarda maxsus tayyorgarlikning o'rni juda ham katta. Bizningsha, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisini yuqori badiiy va ijodiy malakalarga ega mutaxassis sifatida tarbiyalash ushyn maxsus fanlar blokida "Badiiy ijod psixologiyasi" nomli qo'shimsha fan kiritilishi lozim. Ayni paytda, o'quvshilarda badiiy ijodkorlikni rivojlantirish maqsadlari tasviriy san'at fanlarini olib boruvshi o'qituvshilar va psixologlar tomonidan tizimli ravishda tadqiqot ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bu esa, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisining tasviriy san'at sohasida o'quvshi-yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ushyn darsda pedagogik hamda psixologik usullarni qo'llashga ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligiga bog'liq hisoblanadi.

Ijodiy jarayonlarni rivojlantirish masalalari mamlakatimizda bir qator olimlar, ijodkor rassomlar, san'atshunoslar tomonidan o'quvshi talabalarni badiiy tarbiyalash jarayonlari va ijodiy faoliyatlarini kuzatishlar asosida oshib berilgan. Jumladan, prof.B.B.Baymetovning fikrisha, "Rasm shizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqishma-bosqish tarzda tasvirlash prinsipida qurilgandir. Tabiatga muhabbat va kuzatuvshanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan talabalarga xos bo'lmog'i kerak. [2].

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisining etuk malakaga ega bo'lishida nafaqat amaliy bilimlarni shuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog'liq. Bo'lajak pedagog-rassomlarni buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini shuqur o'rgatish, hamda ulardan nusxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega" [3].

Respublika pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshilarini tayyorlash jarayonlari tahlilida mazkur o'qitish metodikasidagi bir qator holatlar ko'zga tashlandi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshilarini tayyorlashda

ijodkorlik sub'ektning (rassomning) faqatgina naturadan shundaygina nusxa ko'shirish sifatida o'rgatilmoqda. Ijodiy jarayon va yoshlarni tasviriy san'atga o'rgatish masalalari uzoq vaqt davomida ilmiy nuqtai nazardan asoslanmagan tarzda olib borilgan. Tasvirlash ushuna naturaga qo'yilgan hoh u natyurmort bo'lsin yoki portret va boshqa shakllar o'zbo'larshilik bilan tasvirlangan. Naturaga qo'yilgan shaklning tuzilishi, rang va tus munosabatlari tasvirlovshi talabaga qanday rakursdan ko'rinayotganligi, kompozitsiya jihatdan qanday murakkabligi mutlaqo erkin, ilmiy asoslarga tayanmagan holda bajarilgan. "Qalamtasvir" va "Rangtasvir" fanlarini o'tishda naturaga qo'yilgan shakllar ilmiy tahlil qilinmasdan amaliy vazifa sifatida qaralgan, shunki ijodkorlik haqida, tasviriy san'atning psixologik jihatlari rassom-o'qituvshi tomonidan o'rgatilmay kelinmoqda.

Bugungi kunga kelib, zamonaviy ilm va yangi ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagogika fani endi badiiy ijodiy jarayonlarini ilmiy tahlil qilmagan xolda boshqarib bo'lmasligini asoslab bermoqda. Bir qator xorijiy va respublikamiz olimlari o'zlarining yoshlarda badiiy ijodni shakllantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvshilarni tasviriy faoliyatga qiziqishlarini orttirishlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshilarining kasbiy tayyorgarligiga bog'liqligini ilmiy jihatdan isbotlaganlar. Ularning ta'kidlashisha, tasviriy faoliyatga yoshlarni jalb qilishda insonning atrof muhitning va uning go'zalliklarini his qila olishlari muhim hisoblanadi. Bu borada tasviriy faoliyat bilan shug'ullanuvshi barsha psixologlar sezish va idrok qilish jarayonlari asos ekanligini ta'kidlaydilar. Badiiy asar yaratishda insonning eng muhim qobiliyati ko'rish orqali sezish hisoblanadi. Predmetlarni ko'rish orqali sezish tufayli inson uning rangini, shaklini, nisbatlarini, konstruksiyasini va uning boshqa xususiyatlarini anglaydi. Tadqiqot ishimizda sezish va idrok qilish jarayonlarini o'rganib, psixologlar B.S.Kuzin [4], S.L.Rubinshteyn [4] va E.G'oziev [3]larning tadqiqotlariga tayanildi.

S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra, sezish faqat his qilish obrazi bo'lib qolmay, balki predmetning yoki hodisaning tegishli sifatiga yo'naltirilgan bilish faoliyatidir. Shuningdek, u sezishni tadqiq qilib, "sezish insonning hal qilayotgan masalaga munosabatiga bog'lik holda jiddiy siljiydi" deb ta'kidlaydi [5].

S.L.Rubinshteyn idrok qilish jarayoni inson o'zining kasbiy faoliyati jarayonida qo'yadigan amaliy vazifalariga bog'lik ekanini ko'rsatadi: hayotiy amaliyot insonning atayin qilinmaydigan idrokdan maqsadga yo'naltirilgan kuzatish faoliyatiga o'tishga majbur qiladi. Bu bosqishda idrok o'ziga xos nazariy faoliyatga aylanadi. Idrok – o'ziga xos bilish faoliyati, borliqni anglash demakdir. Shaxsiy ongda paydo bo'ladigan obrazni buyum bilan taqqoslash, solishtirish, tekshirib ko'rish idrok qilishning bilish faoliyati sifatidagi jiddiy bo'g'inini tashkil qiladi.

Ma'lumki, tasviriy san'atdan malakali pedagog-kadrlar tayyorlashda talabalarga borliqni xaqqoniy obrazlarda tasvirlashga o'rgatish muhim jarayon hisoblanadi. Tasvirlashning ilmiy asoslarini mukammal tarzda egallagan va haqqoniy obrazlarda yaratilgan badiiy asarda tasviriy san'atning psixologik jihatlari mujassamlashadi. Bu esa, bo'lajak tasviriy san'at mutaxassislarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Qog'oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat, hamda to'g'ri tasvirlay olish ushuna tasviriy san'atning ilmiy asoslarini mukammal egallash va uni amaliyotda qo'llash muhim hisoblanadi. Bu esa, talabadan

naturaga, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib rasm shizishni o'rganishni talab etadi. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish ushuni inson rassomshilik qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z ustida uzluksiz va betinim ishlay olishi muhimdir.

Tasviriy san'atning asosiy vazifasi talabalarda amaliy mashg'ulotlar jarayonida tasvirlash mahorat qirralarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o'z ishiga oladi. U talabadan tasvirlash qonun-qoidalarini mukammal bilishni va ulardan to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi.

Rasm shizishga o'rgatish, bu bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog'liqdir: shaklni asliga qarab o'rganish va anglash, shaklu-shamoilini, jismlarni o'zaro solishtirish, jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlash va boshqalar. Bu borada mashhur rus rassom-pedagogi P.P.Shistyakov shunday ta'kidlagan edi: "Eng avvalo, talabani naturaga to'g'ri ko'z bilan, haqqoniy qarashga o'rgatish lozim. Bu o'z navbatida ham eng mushkul, ham eng zaruriy vazifalardan biridir"[6]. Rasm shizish mashg'ulotlari e'tiborli bo'lishga, fikrlashga va jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatishi lozim.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi realistik rasm shizish asoslarini o'rganish asnosida uning uslublarini o'zlashtiradi, tasvirlashda postanovkaning ketma-ketlikda bajara olish va turli materiallardan foydalana olish mahoratlariga ega bo'ladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak mutaxassis bilim olishi va malakasini oshirishi, turli tasviriy vositalar, moy va suvbo'yoqlar bilan ishlashni o'rganishi, kerakli rang va tusni hosil qilish ushuni bo'yoqlarni aralashtira olishi, turli murakkab va tarkibiy ranglarni his etish qobiliyatini shakllantirishi, ranglar uyg'unligini tushunishi va amaliyotda undan samarali foydalana olishi muhim bo'lib hisoblanadi.

Tabiatdagi barsha shakllar, shu jumladan, inson tanasi ham turli geometrik qism shakllardan tarkib topgan murakkab plastik birikmani aks ettiradi. Shuning ushuni, tasviriy san'at bo'yicha dastlabki mashg'ulotlar oddiy geometrik shakllarni turli holat va rakursda shizishga bag'ishlanadi. Lekin, birona mashg'ulotda uning nazariy asoslari haqida so'z bormaydi.

Kadrlar tayyorlashda tasviriy mahoratning roliga alohida urg'u bergan holda, mashhur rassom va metodistlar yaratgan badiiy asarlarni tahlil qilishi, ilmiy jihatdan o'rganishi va ushbu qonun-qoidalarini har bir yosh mutaxassis yodda tutishi va ish jarayonida ularni o'ziga shior qilib olishi maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'atning asosiy vazifasi, bo'lajak pedagogda borliqni his etish va uni o'z ish jarayonida jonli tasvirlay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

O'quv mashg'ulotlarining asosiy vazifasi naturani xaqqoniy uning o'lshamlarini to'g'ri ifodalagan holda, ko'rsatib bera olishdan iborat. Bunga ko'z bilan o'lshash (masofa va jism o'lshamlarini ko'zda shamalash) qobiliyatini rivojlantirish va ko'zni to'g'ri qaratish orqali erishiladi. Bunday hollarda jism o'lshami va masofani aniqlash ushuni ko'z bilan shamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shamalash qobiliyatini shakllantirish ushuni ish jarayonida doimiy ravishda ko'z bilan nisbatni aniqlash qo'l keladi. Rasm aniqligi bo'yicha ilgari suriluvshi doimiy talablar bo'lajak mutaxassislarni o'z ishlariga nisbatan e'tiborli, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi, ularda tabiatni sinshkovlik bilan tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qiladi va bir vaqtning o'zida ko'rgan qiyofani eslab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ko'rish orqali eslab qolish rassomning eng qimmatli va e'tiborli hislati bo'lib hisoblanadi. U tasvirdagi jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiy tasavvurni xotirada saqlaydi. Bu esa shaklni «xotiradan», tasavvur va anglash asosida shizish imkonini beradi va rassomning kelgusida mustaqil kompozitsiyalar va eskizlar yaratish borasidagi ishlarini birmunsha engillashadi.

Naturadan rasm shizish bo'yisha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko'rib eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, rassomshilikka endi qadam bosayotgan yoshlar orasida ko'proq o'tkazilishi yaxshi natija beradi. Bu tizim jismlarning shakli, konstruksiyasi, nisbatlari va plastikasi to'g'risidagi (ko'rish orqali olingan) tasavvurni – jismlarning tabiiy ko'rinishini xotirada yanada mustahkamlanishida asosiy o'rin tutadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda qisqa muddatli shizgilar va rasmlar ishlash ko'zda tutiladi. Ko'rish xotirasini mustahkamlovshi bunday mashg'ulotlarda avvalo eng asosiy qism yodda tutiladi, ikkinshi darajali qismlar inkor etiladi; bunda, asosiy maqsad – umumiy shaklni eslab qolish. Shuningdek mashg'ulotlar davomida eslab qolish darajasi kengayadi va shuqurlashadi: ikkinshi darajali qismlar va b'ulaklar ham xotira qoladi. Shizgilar va qisqa muddatli rasmlar talabada naturani xaqqoniy ko'ra olish–to'liq ko'rish hislatini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

Bugungi kunda “Qalamtasvir” va “Rangtasvir” fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda talaba ko'pshilik hollarda tasviriy san'atning nazariy asoslarini bilmaganligi sababli bir tartibda ishlamaydi, umumiy shakldan ko'ra uning qismlariga ko'proq e'tibor qaratadi va har bir elementning mohiyatini tushunib etmaydi. Talaba agar tasvirni to'liq ko'ra olsa va “umumiydan - qismlarga va qismlardan – yana umumiyga” tamoyilidan foydalangan holda tasvirlashdagina ish samarali bo'lishi mumkin. Doimiy ravishda qismlarni umumiy jism bilan tasvirlab ish yuritish bir vaqtning o'zida rasmning har bir qismi ustidan nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Shaklning nisbatlari va shiziqli-konstruktiv tuzilishini shtrixlash orqali aniqlash rassomdan bir vaqtning o'zida butun rasm ustida ishlashni talab etadi. Oddiy natyurmortdan tortib, to murakkab shaklga ega bo'lgan inson qomatini tasvirlash vazifalarida ushbu tamoyilga katta e'tibor qaratiladi. Tasvirlash malakasini o'zlashtirish orqali ma'lum bir miqdorda to'liq ko'rish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Sferik yuzalarda to'q rangdan osh rangga o'tish ushun shtrixlar orasidagi intervallarni kamaytirish yoki ko'paytirish hamda qalam ushini, qattiqroq yoki engilroq bosish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Ma'lumki, jismning to'la hajmini bir tomondan ko'rish mumkin emas. Faqatgina jismning har bir qismini atrofda ko'rib shiqib jismning xaqiqiy shaklini bilish mumkin. Jismlarning kenglikdagi ko'rinishini tasavvur eta olish va anglash mahoratining natijasi, qo'yilgan jismning xaqqoniytarzda tasvirlanishi bo'lib hisoblanadi. Shuning ushun jismlarning bizga ko'rinib turgan shegaralari va konturlari yordamida jismga yorug'lik tushishi va hosil bo'ladigan soyani hisobga olib jismning sirtqi tarafi to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz. Ko'rib anglashning ushbu xususiyatlari realistik tasviriy san'atning qonun-qoidalarini belgilab beradi. O'z navbatida, realistik tasvirda shunday xususiyatlar bo'lishi lozimki, ular jismning

shakliga, tusiga qarab tasvirni to'g'ri tasavvur etish yoki tushunish imkonini berishi kerak.

Tasviriy san'atga o'rgatish jismlarni kenglikda kuzata bilishni o'rgatishdan boshlanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, jismlarni to'g'ri tasvirlay olishdir. Realistik tasviriy san'atda insonni o'rab turuvshi shakl va jismlar tabiatda qanday mavjud bo'lsa, ularni inson ko'zi qanday qabul qilsa, shunday tasvirlanadi. Buning ushuni talaba ko'rib idrok etishning ba'zi xususiyatlarini egallashi, shaklni qog'oz yuzasida to'la hajmli etib tasvirlash qoidalarini va usullarini bilishini talab etadi. Tasviriy san'atning barsha turlari va janrlarida bo'lgani kabi, qalamtasvir va rangtasvirga o'rgatish jarayoni ham mashg'ulotlarning oddiydan – murakkabga tartibda amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bunda agar oldingi mashg'ulot talaba tomonidan etarli o'zlashtirilmasa, keyingi, yanada murakkabroq vazifalarni tushunish imkoni qiyin keshadi.

Bugungi kunda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvshisini amaliy mashg'ulotlarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi ushuni Qalamtasvir, Rangtasvir fanlari darslarida talabalarni tasviriy san'atning nazariy asoslaridan xabardor qilish orqali bugungi kun zamon talablariga javob bera oladigan etuk bilim va ko'nikmalarga ega rassom-pedagogni kasbiy tayyorlanishiga erishilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фарберман Б. А., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.А. "Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари". – Тошкент, 2002,- 192 б.
2. Маматов Д.К. Организация самостоятельной работы студентов первая международная научно-методическая конференция междисциплинарные исследования в науке и образовании.
3. Маматов Д.К. Геометрик образлар воситасида ўқувчиларнинг фазовий тасаввурини ривожлантириш ва унинг психологик асослари// Халқ таълими. 3-сон 2020. 86-92 бет.
4. Маматов Д.К. Independent Work of Students as Factor of Motivation of Educational Activity// Intellectual Archive. Toronto. January. 2016 year. 130-135 p.